



## HUQUQIY FANLARNI O‘QITISHNING AHAMIYATI VA SAMARALI USULLARDAN FOYDALANISH

**Dauletbaeva Jadiraxan Aliy qizi**

*Nukus davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti*  
[jadiradauletbaeva84@gmail.com](mailto:jadiradauletbaeva84@gmail.com)

**Maxsutov Islam Tazabaevich**

*Nukus shahar Darbent MFY yoshlar yetakchisi*

**DOI** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15079678>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada huquqiy fanlarni o‘qitishning ahamiyati va u fuqarolar uchun qanchalik kerakligi, jamiyatda huquqiy savodxonlikni oshirishning maqsadi va vazifalari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Huquqiy bilim jamiyatda yashayotgan shaxslarning o‘z huquq va burchlarini bilishi, tushunishi va amalda qo‘llashi uchun juda muhimdir. Shuningdek, huquqiy ta’lim jarayoni, jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni shakllantirish masalalari to‘g‘risida ma’lumotlar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Konstitutsiya, huquq va erkinliklar, fuqarolik, huquqiy madaniyat, qonunlar, huquqiy ta’lim usullari, huquqiy tarbiya.

Mamlakatimizda qonunchilikni ta’minlashda, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda, ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirishda huquqshunoslik fanlarining o‘rni beqiyos. Huquq fanini o‘qitish metodikasi doirasida huquq fanidan aniq o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish, talabalarning bilim va ko‘nikmalarini oshirish, shuningdek, o‘qituvchi va o‘quvchi mehnatini ilmiy tashkil etish masalalarini dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlatni barpo etishda bosh huquqiy omil hisoblangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Qonunlari va qonunosti hujjatlari shuningdek, huquqshunoslik fanlarining jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini, ma’no-mazmuni hamda mohiyatini uzluksiz o‘rganish huquqshunoslik fanlarini o‘qitish va ularni amaliyotga tatbiq etish zaruratini keltirib chiqaradi. “Huquqshunoslik fani inson dunyoqarashi, uning huquq va davlat to‘g‘risidagi tasavvuri, tushuncha va bilimlari shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

Huquqiy tarbiya - jamiyat a’zolari madaniyati va ongiga huquqiy bilimlarni turli ta’sir vositalari orqali uzluksiz singdirib borish jarayonini ifodalovchi tushuncha. Huquqiy tarbiya keng ma’noda, jamiyat a’zolarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini shakllantirish, shaxs ongiga uning huquq va burchlarini singdirish jarayonini anglatadi. Huquqiy tarbiya tor ma’noda fuqarolarning huquqiy bilim va madaniy saviyasi, darajasini oshirishga xizmat qiladigan usul va vositalarni ifoda etadi. Huquqiy tarbiyaning davlat va jamiyat taraqqiyotida hamda fuqarolik jamiyati asoslarini qurishdagi o‘rni shaxsning, fuqarolarning huquqiy bilimi va ko‘nikmalari



darajasi bilan belgilanadi. Huquqiy tarbiya mavjud tuzum, davlat va hokimiyat organlari, mahalla, oila, tashkilotlar va ularning faoliyati orqali amalga oshadi.

Huquqshunoslikning g‘oyaviy ta’siri insonning huquqiy madaniyati rivojlanishiga, huquq talablarini qadrlab, unga rioya etishiga yordam qiladi. Bu bilan jamiyatda huquqiy axloq va huquq-tartibot qaror topishiga imkon yaratadi. 2018-yil 22- yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5308-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Davlat dasturida ham yuqori malakali yuridik kadrlar tayyorlashni takomillashtirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618-son Farmoni keng jamoatchilikning huquqiy ongi, huquqiy madaniyati, huquqiy savodxonlik darajasi yuksalishida amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu Farmonda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to‘sqinlik qiluvchi quyidagi muammo va kamchiliklar saqlanib qolinayotganligi sanab o‘tildi. Jumladan, huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta’lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayapti. Uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki yetarlicha ta’minlanmagan. Mamlakatimizda inson huquqlari va manfaatlarini ta’minlash, ijtimoiy hayotni demokratlashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish va huquqiy davlat asoslarini shakllantirish zaruriyatidan kelib chiqqan holda ushbu “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish” Milliy dasturi qabul qilingan.

Joriy qilinayotgan islohotlar mamlakatimizda huquq sohasini rivojlantirish, aholi orasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, malakali huquqiy kadrlarni tayyorlash uchun asos vazifasini o‘tamoqda. Huquqiy fanlarni o‘qitishning yangi usul va uslublarini ishlab chiqish, shaxslarda Konstitutsiya va Qonunlarga hurmat hissini shakllantirish dolzarb va muhim sanaladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonining 20-maqsadida: “Aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu borada davlat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va ta’lim tashkilotlari bilan o‘zaro samarali hamkorligini yo‘lga qo‘yish”– ustuvor maqsad qilib mustahkamlandi.



Har qanday ta’lim va tarbiya to’g’ridan-to’g’ri ustuvor maqsadlarni belgilashga, ya’ni, qoida tariqasida, davlatdan kelib chiqadigan va ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlari bilan shakllanadigan maqsadlarni belgilashga bog’liq. Huquqshunoslik fanlarini o’qitishning zamonaviy, taraqqiy etgan davlatlar tajribalaridan foydalangan holda texnologiyalarini joriy etish zarur. Zero, “Huquqiy ta’lim asosida o’z huquqlarini va burchlarini yaxshi bilgan jamiyat a’zolari gina ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ongli ravishda mehnat qiladi va ularning yaratuvchanlik faoliyati ancha yuqori bo’ladi”.

Har bir huquqiy bilim beruvchi ustoz o’z oldiga aniq maqsad qo’yishi lozim. Huquqiy bilimning asosiy maqsadi shaxsda, guruhda huquqiy tushunchani shakllantirish va uning asosida huquqiy tarbiyaga erishishdan iboratdir. Huquqiy bilim olish jarayonida o’quvchilar qonunlarni bilishga, ulardan foydalanshiga, hayotga tadbiq etishga erishishlari, o’z huquq erkinliklarini mukammal bilib, qonunga rioya qilish majburiyatini o’rganishi lozim. Huquqiy bilim bilan bog’liq huquqiy tarbiyada shaxslar huquqbuzarlik sodir etmasliklari, qonun doirasida ish tutishlari, o’zlarini va boshqa shaxslarni hurmat qilishlari, davlat, jamiyat va oilada o’rnatilgan tartib-qoidalarni buzmasliklari kabi tarbiyaga erishishlari kerak.

Bilimlar xususida gapirganda, bu o’rinda, avvalo, yoshlarga bilimlarni qanday hajmda yetkazish kerak, degan savol ko’ndalang bo’ladi. Umumta’lim maktablaridagi huquqiy ta’lim - tarbiya birinchi navbatda voyaga yetmaganlarni ular hozirda ijro etayotgan va kelgusida bajarishi lozim bo’lgan umumiy ijtimoiy rollarni (davlat fuqarolari, oila a’zosi, o’quvchi) ado etishga tayyorlashga xizmat qilishi kerak.

Yoshlar ularga bevosita tegishli bo’lgan umumiy o’rta ta’lim maktabi nizomi; O’quvchilar uchun qoidalar; Bolalar va o’smirlarning jamoat joylardagi xulq - atvor qoidalari; bolalar va ota –onalar munosabatlarini tartibga soladigan nikoh-oila huquqi normalari; sog’likni saqlash haqidagi qonunlar; Fuqarolik qonuni; jinoyat haqidagi qonun va boshqa huquqiy hujjatlarni bilishlari lozim. Huquqlar bilan majburiyatlarning mustahkam aloqadorligi prinsipi muhim prinsiplaridan biri bo’lib, bir toifadagi kishilar boshqa toifadagi kishilarning majburiyatlari bilan har doim o’zaro aloqador bo’lgan suveren, demokratik davlat qonunlarida ancha to’liq mujassamlashgan bir kishining huquqiga qaysidir boshqa kishining majburiyati muvofiq kelmasa, unda bunday huquq noreal huquq bo’ladi va bu bilim oluvchilarda qiziqish uyg’otmaydi.

Huquqni fan sifatida o’qitish metodikasi doimiy ravishda izchil rivojlantirilishi va takomillashtirilishi joiz. Huquqshunoslik fanini o’qitishning uslubiy texnikasi va



tashkiliy shakllari tizimini rivojlantirish, takomillashtirilgan o‘quv qo‘llanmalarini yaratish, shuningdek malakali yuridik o‘quv kurslarini o‘qitishni keng joriy etish lozim. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 60-moddasida: “Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa insonlarning huquqlari, erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar”[2] ,– deya belgilab, mustahkamlab qo‘yilganligi fuqarolardan huquqiy bilim va ko‘nikmalarni talab etadi. Jamiyat a‘zolarining huquqiy ong va madaniyatini shakllantirishni ta‘minlaydigan huquqiy ta‘limni o‘qitishning zamonaviy ta‘lim texnologiyalarini joriy etish muhim sanaladi.

Huquqshunoslik fanlarini o‘qitishning samarali va sifatli metodika va usullaridan foydalanish tahsil oluvchilarning bilish qobiliyatlari, ularning yosh xususiyatlari, organizmning fiziologik xususiyatlariga asoslanadi. Shu munosabat bilan maktabgacha ta‘lim muassasalarida, boshlang‘ich maktabda huquqni o‘qitish o‘rta maktabdagi jarayondan keskin farq qiladi.

Maktabgacha ta‘lim muassasalaridagi o‘rgatish faoliyati o‘yinlar orqali amalga oshirilishi sababli, Konstitutsiyadagi qoidalar turli xil mashg‘ulotlarda tushuntiriladi. Aynan shu o‘yinlar orqali bolalar o‘z huquq va erkinliklarini, burchlarini anglab olishadi. Bu davrda Konstitutsiyaviy qoidalar sodda, oddiy, bolalar uchun tushunarli va qiziqarli tarzda bayon etilib: bolalarga inson tushunchasi, uning ahamiyati, jamiyatdagi o‘rni, inson sifatida bolalarning huquq va erkinliklari tushuntirilib, insonni sevish, hurmat qilishga odatlantiriladi, insoniylikning yovuzlik, vaxshiylikdan farqi ertaklar aytib berish, ertaklardagi voqealarni tahlil qilish mobaynida o‘rgatiladi.

-Davlat inson manfaatini himoya qilishini, insonning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmatini eng oliy qadriyat hisoblanishini bolalar tilida tushuntirilib, inson sifatida avvalo o‘zining qadr-qimmatini bilishga va uni hurmat qilishga o‘rgatiladi;

-Madaniyat, ma‘naviy va tarixiy merosni avaylab asrashga, tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga odatlantiriladi; qiz bolalar va o‘g‘il bolalarning bir-birini hurmat qilishlari, o‘zaro munosabatlari ham bayon etilib, ularning teng huquqli ekanliklari tushuntiriladi. Shuningdek, jamiyatda oilaning o‘rni, oilaning davlat tomonidan muhofaza qilinishi, farzandlar ota-onaga g‘amxo‘r bo‘lishlari, kattalarni hurmat qilish singari oddiy hayotiy vaziyatlarga asoslanib huquq va majburiyatlar singdirilib boriladi.

O‘quvchilarga Konstitutsiya va qonunlar matnini yod oldirish hech qanday samara bermaydi va bu ularda zerikish , fanga bo‘lgan qiziqishning pasayishiga olib keladi. Chunki, internet texnologiyalari rivojlangan hozirgi davrda o‘quvchilar



o'zlariga kerakli ma'lumotlarni hech kimning yordamisiz soniyalar ichida oson topib olishadi, ammo bu ma'lumotni yodda saqlab qolish va qayta ishlash, bilimlardan hayotiy vaziyatlarda foydalanish ko'nikmasi shakllanmaydi. Ta'lim oluvchilarga bilim berish bilan birga amaliyotda foydalanish ko'nikmasi shakllantirilsa bu haqiqiy foydali bilim huquqiy madaniyat sanaladi va pedagog o'z maqsadiga erishgan hisoblanadi. O'quvchilarda hayotiy voqealarga asoslangan bilim ularda zaruriy ko'nikmalar hosil qiladi.

Bugungi zamonaviy ta'lim talabalarni ta'lim jarayonidagi faolligini oshirishga qaratilgan faol metodlarni qo'llashni talab etadi. Shuni e'tiborga olish kerakki, faol metod tanlash nafaqat ta'lim maqsadiga, balki o'quv materialini mazmuniga ham bog'liq bo'ladi. Ta'lim oluvchilarning o'quv-bilish va o'quv amaliy faoliyatlarini faollashtirishda ko'mak beruvchi ta'lim metodlarini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Faol ta'lim metodlarni maqsadli yo'naltirilgan tanlash belgilangan o'quv maqsadga erishishni kafolatlaydi.

Keys tadqiqotlari va muammoli ta'lim: Bu usul o'quvchilarga real yoki faraziy huquqiy ishlarni taqdim etish va ularga tegishli huquqiy masalalarni tahlil qilish, tegishli huquqshunoslik nazariyalarini qo'llash va yechimlarni taklif qilish jarayonida yo'l-yo'riq ko'rsatishni o'z ichiga oladi. Bu yondashuv nazariy tushunchalarni real dunyo senariylari bilan bog'lashda talabalarga tanqidiy fikrlash va tahliliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Misol tariqasida; “Xiyobonda o'tirgan kishi qo'lidagi axlatni daraxt tagiga tashladi.” Bu Konstitutsiyamizning qaysi moddasiga zid? -62-modda. “Fuqarolar atrof va tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar.” Muammoli talim orqali o'quvchida quyidagi ko'nikmalar hosil bo'ladi: - ekologik madaniyat va tabiatni asrab avaylash, bosh qomusimizga rioya etish burch ekanligi. Agar bu modda o'qituvchi tomonidan ma'ruza sifatida aytib o'tilganida o'quvchilarda tahlil qilinmas va bu faqat “sinf ichkarisida qolib ketadigan” bilim bo'lar edi.

Sokratik usul: Bu tanqidiy fikrlashni rag'batlantirish va huquqiy tushunchalar va tamoyillar bo'yicha turli nuqtai nazarlarni o'rganish uchun ochiq savollar va dialoglardan foydalanishni o'z ichiga olgan o'qitish usuli. Yurisprudensiya darslarida o'quvchilarni huquq nazariyalari bo'yicha o'z talqinlarini ifodalash va himoya qilishga, tengdoshlari bilan asosli bahs yuritishga undash uchun Sokratik metoddan foydalanish mumkin. Interfaol ma'ruzalar va muhokamalar: Multimedia taqdimotlari, guruh muhokamalari, bahs-munozaralar va so'rovlar kabi interfaol elementlarni o'z ichiga olish huquqshunoslik darslarini yanada qiziqarli va samarali qilishga yordam



beradi. Ushbu yondashuv ta’lim oluvchilarning faol ishtirokini rag’batlantiradi va murakkab huquqiy nazariyalarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Texnologiya va onlayn resurslardan foydalanish: Raqamli vositalar, onlayn yuridik ma’lumotlar bazalari va multimediya resurslarini integratsiyalash talabalarga keng ko’lamli huquqiy materiallar, ilmiy maqolalar va multimedia kontentidan foydalanish imkoniyatini ta’minlash orqali o’quv tajribasini oshirishi mumkin. Onlayn platformalar, shuningdek, hamkorlikda o’rganish va yuridik resurslarga masofadan kirishni osonlashtirishi mumkin.

Hamkorlikdagi loyihalar va tadqiqotlar: Talabalardan tadqiqot olib borish, huquqiy matnlarni tahlil qilish va ularning natijalarini taqdim etishni talab qiladigan hamkorlik loyihalarini belgilash jamoaviy hamkorlikni rivojlantiradi va talabalarga huquqshunoslik masalalarini chuqur o’rganish imkonini beradi. Hozirgi pedagogik amaliyotida ta’lim metodlarning 200 dan ortiq turlari mavjudligi e’tirof etiladi. Ushbu ta’lim metodlarini ta’lim jarayonida foydalanish pedagog mahoratiga bog’liq.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063>
2. O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi, 01.05.2023y.
3. “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-5618-son Farmoni. 2019-yil 9-yanvar
4. Saidkulov N. Huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiya asoslari. –Guliston, Universitet. 2020.
5. Sayitxonova Barchinoy Axatovna “Huquq fanini o‘qitish ahamiyati” Международный научный журнал № 13 (100), часть 1 «Научный Фокус» Ма